SURXONDARYO VILOYATI DENOV TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 12-noyabr | 435-8-111-Q/24 | Denov tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditini ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 21-oktabrdagi 691-son va viloyat hokimining 2024-yil 28-oktabrdagi 703-8-0-Q/24-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditini ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 21-oktabrdagi 691-sonli va viloyat hokimining 2024-yil 28-oktabrdagi 703-8-0-Q/24-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2024-yil 28-oktabrdagi ““O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditini ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 21-oktabrdagi 691-son qarorining ijrosini ta’minlash haqida”gi 703-8-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi “Mahalla yettiligi” tavsiyasi asosida kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditini ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi inobatga olinsin:

yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash maqsadlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan to‘rt foiz

bandga yuqori stavkada 120 million so‘mgacha miqdorda, 20 yilgacha muddatga ipoteka kreditlarini ajratish;

ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun ajratiladigan kreditning 15 foizi miqdorida hamda foiz to‘lovlarining bir qismini qoplash uchun kredit muddatining birinchi besh yili davomida 12 foizdan oshgan qismiga subsidiya to‘lab berish;

ipoteka kreditlari va ular bo‘yicha subsidiyalarni rasmiylashtirish hamda ajratish tartibi.

3. Tuman hokimining mazkur qarori bilan:

Kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga ipoteka kreditlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining mablag‘lari hisobidan, qoida tariqasida, “Agrobank” ATB Denov tumani filiali (A.Norqobilov), “Xalq banki” ATB Denov tumani filiali (M.Elmurodov) va “Mikrokreditbank” ATB Denov tumani filiali (A.Choriyev) tomonidan ajratilishi;

kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan shaxslarga yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlashda kadastr pasportini rasmiylashtirish va ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bog‘liq to‘lovlar qiymati 50 foizga kamaytirilishi;

yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash uchun ajratilgan ipoteka kreditlari bo‘yicha dastlabki badal va foiz xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar “subsidyplatform.mf.uz” to‘lov platformasi orqali ajratilishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari M.Rasulov, F.Rasulov, X.Toirov va N.Lutfullayeva “mahalla yettiligi” bilan birgalikda kambag‘allikdan chiqarish dasturiga kiritilgan va yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish hamda ta’mirlashga ehtiyoji bo‘lgan fuqarolarga ipoteka kreditlarini ajratish va ularning maqsadli o‘zlashtirilishi jarayonini samarali tashkil etish, kredit olgan fuqarolarning daromadli doimiy mehnat faoliyati bilan band bo‘lishlarini ta’minlash choralarini ko‘rib borsin.

5. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (I.Ismoilov) uch oy muddatda:

tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (X.Primov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Denov tuman bo‘limi (I.Irkabayev), “Agrobank” ATB Denov tuman filiali (A.Norqobilov), “Xalq banki” ATB Denov tuman filiali (M.Elmurodov), bilan birgalikda “Onlayn mahalla” va “Raqamli mahalla” platformalari,

“subsidyplatform.mf.uz” to‘lov platformasi hamda tegishli tijorat banklarining axborot tizimlari o‘zaro integratsiya qilinishini ta’minlasin;

tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Denov tuman bo‘limi (I.Irkabayev) bilan birgalikda ushbu qarorning mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida keng tushuntirilishini tashkil etsin.

6. Tuman hokimligi devonxona mudiri (F.Xudoyberdiyev)ga mazkur qaror nusxasini manfaatdor tashkilotlarga yuborish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov va tuman hokimining o‘rinbosari v.v.b X.Toirov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **I.Abrorov**